

## DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI

<sup>1</sup>Karakulova Umida Abduvakilovna, <sup>2</sup>Rashidova Gulnoza Gulomovna,  
<sup>3</sup>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi

O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi" kafedrasida o'qituvchilari.  
umida260686@gmail.com

**Annotasiya:** ushbu maqolada voyaga yetmaganlar orasida yuzaga keladigan deviant xulq-atvor, uning ko'rinishlari, olimlar fikrlari, qarashlari va bu borada olib borilgan izlanishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Oilada shaxslararo munosabatlar, oilada yuzaga keladigan nizolar va ularning farzandlar tarbiyasiga, xulq-atvori va ruhiyatiga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ota-onalar, deviant xulq-atvor, OAV, g'amxo'rlik, tarbiyaviy funktsiya, oilaviy tarbiya, o'smirlar, oilaviy muammolar, nizolar, huquqbuzarlik, affektiv soha, disfunktsional, emotsional holat, agressiv xulq-atvor, oilaviy munosabatlar.

Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan me'yorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi, shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega. Unga muvofiq ravishda har qanday harakat «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» «yaxshi» yoki «yomon» deb tavsiflanadi. Bunday tushunishda me'yorning tabiiy bo'g'lanishi, ya'ni unga aloqador tushuncha «buzilish» atamasi bo'lib hisoblanadi. Odatda «buzilish» atamasi har qanday «kasal» va «kasallik» xususida mulohaza yuritilganda ham ishlatiladi. Chunki buzilish aniq termin bo'lmasdan, balki bu tushuncha orqali xulq-atvor yoki uning ko'rinishlari bilan bog'liq belgilar tushuniladi.[12] Insonning xulq-atvori o'zgaruvchan va rang-barang bo'lib, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos «uslublari» ning mavjudligi hammaga ayon. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o'zaro muloqoti, o'zaro munosabati, ularni turli

ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. "Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta'sirlarning obyektini hisoblanadi". Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi.

Bola tarbiyasida, ijtimoiy me'yorlar talabi asosida tarbiyalashning eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. "Yoshlarimiz tarbiyasi qanchalik mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi." [1] Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlab, barkamol komil inson bo'lib shakllanishida nikohli sog'lom oila muhitining o'rni benihoya katta va salohiyati cheksizdir. Har bir farzand inson bo'lib, shaxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga, bevosita bog'liqdir. Insondagi xulq-atvor, axloq-odobning dastlabki normalari oilada shakllanib, maktab, mahallada, jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi, insoniy fazilatlari shakllanib takomillashib komil insoniylik darajasigacha ko'tarilib boradi, agar aksi namoyon bo'lsa buzg'unchi, tajaovuzkor shaxsga aylanib qoladi.

Ma'lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o'ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o'rin tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom, o'zaro muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan deviant va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari o'rganilganda, ota-onaning kayfiyatiga ko'ra, ko'p hollarda qattiqqo'llik, jazolash, ota-onalik mehrining "tanqis"ligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Deviant xulqli va ijobiy xulqli o'quvchilarning oila sharoiti o'rganilganda, deviantlilarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Xulq og'ishini kelib chiqishiga aloqador oilaviy

va ijtimoiy omillar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatishicha, ikki o'zaro bog'liq omil orasidagi;

- funksional yoki xulq-atvorga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar

- bevosita ta'sir qiluvchi, o'zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jarayonlarga ajratish mumkin.

Deviant xulqli farzandi bor oila a'zolarinig o'zaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilar ko'proq ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarining ko'rsatishicha, ota-ona orasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, o'zaro xusumat, shuningdek, mustahkam bo'lmagan nikoh deviant xulqida yoshligidanoq o'z asoratlarini ko'rsatadi. Bunday ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam e'tibor beradilar. Ayni vaqtda farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi. Ushbu holatlar sof psixologik nuqtai nazaridan etibor berilsa xar qanday xuquqbuzarlik, xar qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqin qilinadi. Bunda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va o'ziga hos qonunbuzarlik shaklida ifodalovchi uning psixik holati, shaxsning motivatsion jabxasi, individual psixologik sifatlari, psixologik hususiyatlari, sub'yektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida o'z ifodasini topadi. voyaga yetmaganlar xos deviant xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni tan olmasligi, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Xulq-atvorida buzilishlari bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablarni tadqiq qilish, oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni o'rganish alohida yondashuvni talab etadi.

Zero, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar - ularning intellektual, xissiy, irodaviy rivojlanishda ham orqada qolish holatlari ortib

borayotganidan dalolat bermoqda. Hozirgi davrda o'smirlikka xos deviant xulqining shakllanishida oilaning ta'sirini o'rganishga e'tibor ortgan. Zamonaviy psixologiya fanlarida ushbu muammoga bag'ishlangan tadqiqotlarning o'rni salmoqlidir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi «qiyin» o'smirlarning shakllanishida oilaviy muhitning qay darajada o'rin egallashi va oiladagi nizolarning ta'sirini o'rganish dolzarbligi oshib bormoqda.

L.S.Vigotskiy fikricha, "O'g'ishgan xulq" o'smirning qiyin xayotiy munosabatlar xarakterining yig'indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar. Ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularda ma'lum bir xususiyat intizomsiz, qo'pol bo'ladilar. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi bir huquqlarni berish bilan ularga tasir o'tkazish mumkin.[4] Psixologiyada xulqi og'ishgan o'quvchilarning bir qancha klassifikatsiasi mavjud;

- 1- guruh ijtimoiy salbiy mustaxkam qarashlari ega bolalar,
- 2-guruh qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar,
- 3-guruh ijobiy va salbiy xulq atvor steriotiplari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z holatlarini tushunuvchi bolalardir,
- 4-guruh irodali bolalarga bo'ysinuvchilar,
- 5- guruh qonunbuzarlik yo'liga tasodifan kirib qolganlar.

Ijtimoiy psixolog G.M. Andreyeva ijtimoiylashuvni quyidagicha tar'riflagan. Ijtimoiylashuv bolalarning ijtimoiy me'yorlik va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini qamrab olgan, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda, ayniqsa, zarur bo'lsada, bu jarayon uning butun umri bo'yi davom etadi. Birorta ham inson o'ziga boshqa insonlarning o'tkazadigan ta'sirisiz mavjud bo'la olmaydi va bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi[5]

Bolaning dunyoga, jamiyatga, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalariga munosabatining birinchi namunasi ota-onalardir. "Bola huquqlari" to'g'risidagi konventsiyada "shaxsning to'liq va uyg'un rivojlanishi uchun bola oilaviy

muhitda, baxt, muhabbat va tushunish muhitida o‘sishi kerak”[3] deb e‘lon qilingan. Jamiyatimiz taraqqiyoti munosabati bilan oila, uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Millatning tarixiy, milliy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zbek oilalari taraqqiyotini umumiy va xususiy taraqqiyotlar asosida oilaviy tarbiyani maqsadga muvofiq yaxshilash lozim. Psixologlar oilaviy nizolarda bolalarning xulq-atvorining asosiy modellari aniqladilar va ular bolalar ongsiz ravishda yoki ongli ravishda barcha qo‘pol qirralarni tekislashga yoki ota-onalarni yarashtirishga harakat qiladilar:

- U boshidan kechirgan barcha tajribalar ertami-kechmi unda kasalliklarini keltirib chiqaradi, bu esa shartli ravishda istalgan, chunki ular hammani janjalning davom etishidan chalg‘itadi. Ko‘pincha bunday bolada jiddiy kasallik rivojlanadi - bronxial astma, ekzema yoki burun shamollashi. Asab kasalliklari, bezovta uyqu va uxlashning qiyinlashishi, enurez, duduqlanish, asabiy tangliklar kuzatiladi. Agar o‘smir tez-tez kasal bo‘lib yoki sog‘lig‘ida muammolar mavjud bo‘ls, oiladagi vaziyatni tahlil qilish kerak. Ehtimol, barcha kasallikining ildizini tez-tez takrorlanadigan nizolardadir;

- Agar oilada ko‘pincha janjal va nizolar bo‘lib tursa va bu xatti-harakatlar bolalar ko‘z oldida sodir bo‘lsa, kelajakda u shaxsiy hayotida doimiy muvaffaqiyatsizliklarga va ota-onalikning noto‘g‘ri qiyofasini shakllantirilishiga olib keladi;

- Bola nizoli vaziyatlarda ba‘zan o‘zini-o‘ziga jalb qiladi. Bunda bola oilaviy nizolarda neytral pozitsiyani egallaydi, ularda qatnashmaslikka harakat qiladi. U bu mojarolarni hal qila olmaslikdan juda xavotirga tushishi mumkin, tashqi tomondan hech qanday his-tuyg‘ularni namoyon qilmasada, oilasidan tobora uzoqlashishi, yolg‘izlikka berilib, hech kimni ichki dunyosiga kirishiga yo‘l qo‘ymasligi mumkin. Bunday bola har qanday jamoada, keyin esa jamiyatda moslashishi qiyin bo‘ladi.

- Ular tez-tez depressiyaga tushadi. Doimiy ishonchsizlik va qo‘rquv kuztiladi, o‘z-o‘zini past baholaydi. O‘smirlik davrida bu bolalar his-tuyg‘ularga

berilib ketishadi va ko‘pincha taqiqlangan narsalarda taskin topadilar - chekish, ichish, giyohvand moddalar, uydan chiqish va hokazo.

- Bolaga faqat u guvohi bo‘lgan oiladagi nizolr salbiy ta’sir qiladi degan fikr bor. Ammo psixologlar ota-onalarning e’tiborini shunga qaratadiki, o’smirlar tashqaridan ko‘rinmaydigan ota-onalar o‘rtasida yashirin to‘qnashuvlarni ham xis etishga qodir. Ota - onalarning bir-birlarini ayblashi, uzoq vaqt davomida ularning begonalashuvi va munosabatlarda sovuqqonlik bilan yashashi o‘smirga salbiy tasir o‘tkazadi.[12]

Oila tarbiyaning eng boshlang‘ich o‘chog‘idir .Oiladagi muhit bolalar xulq-atvorida o‘z aksini topadi.[10]Doimiy nizoli vaziyat xukm surgan oilada,psixologik muhit buzuladi va o‘smirga e’tiborsizlik kuchayadi.Natijada esa o‘smir xulqida og‘ishishlar yuzaga kela boshlaydi.Bunday vaziyat uzoq muddat davom etadigan bolsa,jiddiy deviatsiyalarga olib kelishi mumkin.Nizoli oilada o‘smirlar doim e’tiborsiz va qarovsiz qoladi, oilaviy muloqotga muhtojlik sezadi, natijada o‘zgalar panoh izlaydi, boshqa turli mashg‘ulotlar topadi,xatto jinoyatchilikka qo‘l urishi mumkin.Nizosiz oilalarda ulg‘ayayotgan o‘smirlar esa doimiy mehr-muhabbat qurshovida bo‘ladi,bolani tinglaydilar va u bilan suhbatlashishga vaqt ajratiladi.

Yoshlarda deviant xulq va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o‘rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e’tibor berish lozim.[10] Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida farzandlarga diniy tarbiya berish, e’tiqodini mustahkam qilish, ularda har qanday xulq og‘ishi ko‘rinishi diniy tarafdin ham, dunyoviy tarafdin ham salbiy oqibatlarga olib kelishini tizimli tushuntirish, mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, o‘zini band qilish va mehnat qilish ko‘nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san’at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak.[13] Zero,

shaxsdagi ichki “men” ning atrof-muhit, jamiyat va yaqinlari tomonidan munosib ravishda rag‘batlantirilmasligi o‘ziga bo‘lgan bahosining tushib ketishiga, “tan olinish” ehtiyojining qondirilmasligiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, shaxs tomonidan boshqa yo‘llar bilan “o‘zini namoyon etish” istagini vujudga keltiradi. Yoshlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o‘rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e‘tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli bo‘lishga qobiliyatni rivojlantirish, o‘zini band qilish va mehnat qilish ko‘nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san‘at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak.

Yoshlar orasida, shuningdek, xulqi og‘ishgan shaxslar, tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik treninglarni ko‘proq o‘tkazish, ularda xarakter xislatlari va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali xulq og‘ishini oldini olish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUN HUJJATLARI TO‘PLAMI.  
— 2006 YIL № 6. 99-M
2. G‘oziyev E. G’ “Psixologiya”. T. 2008 yil.
3. G‘oziev E.G’. “ONTOGENEZ PSIXOLOGIYASI”. NOSHIR TAXRIRI  
OSTIDA T. 2020 YIL.
4. Менделевич В.Д. “Психология девиантного поведения”. М.:2016 yil
5. Shoumarov G‘, Umarov B, Akramova F. “YOSHLARDA XULQ OG‘ISHI VA  
TARBIYA BUZILINING OLDINI OLISH BO‘YICHA PSIXOLOGIK  
MASLAHATLAR”. Toshkent.:2015 yil

6. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 586-589.
7. Abduvakilovna K. U. et al. O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA'SIRI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 2. – С. 91-94.
8. Abduvakilovna K. U. et al. O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 2. – С. 87-90.
9. Abduvakilovna K. U. et al. OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 2. – С. 95-98.
10. Abduvakilovna K. U. O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 14. – С. 763-767.
11. Rahmatullayeva M., Rashidova G., Karakulova U. XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2023. – Т. 3. – №.
12. Rahmatullayeva M., Umida K., Gulnoza R. BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2023. – Т. 3. – №. 1.
13. П.М.Рахматуллаева, М.А.Маҳкамова ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-talim-sifatini-oshirishda-motivatsiyaning-rni-yohud-ulkan-ma-sadlar-sari-dastlabki-adam> (дата обращения: 26.01.2023).



14. Rahmatullayeva M. O ‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
15. 4. Rahmatullayeva M. XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
16. Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 8. – С. 169-172.
17. Rashidova G. “COMPENTLIK” AND “COMPACTNESS” OF TINCALARING OF TALHS AND JEWELRY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – Т. 2021. – №. 4. – С. 99-112.
18. INTER F. L. I. N. An International Multidisciplinary Research Journal //An International Multidisciplinary Research Journal. – 2017. – Т. 41. – №. 43.
19. Gulomovna R. G. Modern requirements for the socio-cultural competence of a teacher of history //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021
20. Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7728>
21. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>
22. Djumanov Sh.Z. Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy muomala jarayoniga tayyorlash. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириши муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги*, 112-115.

23. Gulomovna R. G. TALABALARDA PEDAGOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 506-509.
24. Otamuratov R.U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari> (дата обращения: 30.01.2023).
25. Otamuratov R.U., Ochilova M. EMOTSIONAL INTELEKT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi> (дата обращения: 30.01.2023).
26. Rahmatullayeva M. O ‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
27. Rahmatullayeva M. XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
28. Rashidova G. “COMPENTLIK” AND “COMPACTNESS” OF TINCALARING OF TALHS AND JEWELRY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – Т. 2021. – №. 4. – С. 99-112.
29. Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 8. – С. 169-172.
30. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.
31. Yuldasheva S. I.A. KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G‘OYALARI //Журнал Педагогики и

психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.

32. Yuldasheva Sojida Zoirovna, Nizomov Bekhruz Umarovich, Kholova Mohina Khayot qizi, & Eshtemirov Avazbek Nodir ugli. (2022). PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(12), 153–161. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/365>

33. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.

34. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 513-515.

35. П.М.Рахматуллаева, М.А.Маҳкамова ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-talim-sifatini-oshirishda-motivatsiyaning-rni-yohud-ulkan-ma-sadlar-sari-dastlabki-adam> (дата обращения: 26.01.2023).

36. Ergashevich, Y. S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 46-49.

37. Yuldashev, S. (2023). LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SINF RAHBARINING O‘RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7716>

38. Yuldashev, S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/6548>

39. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>
40. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). INTERNETNING SHAXSGA TA'SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7723>
41. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7724>
42. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>
43. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING HISSIY OMILLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7727>
44. Arakulov, G. (2023). ВНИМАНИЕ – ВАЖНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7681>
45. Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ - ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7714>

46. Djumanov, S. (2023). TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSIGA YONDASHUVLAR VA TUSHUNCHALAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7719>